

Received: 1 September 2026 Accepted: 3 September 2026 Published: 5 September 2026

Vol. 5 • No. 9 • 2026

5T YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNING INGLIZ TILIDA RAQAMLI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ġafforova Sevara Ġanisherovna

Buxoro Xalqaro Tibbiyot Texnikumi o'qituvchisi

DOI: 10.5281/zenodo.22640801

ABSTRACT: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ingliz tilida raqamli kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda 5T yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiya faqat grammatik, leksik va nutqiy bilimlar majmui sifatida emas, balki raqamli platformalarda maqsadli muloqot olib borish, axborotni izlash va qayta ishlash, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etish, raqamli kontent yaratish va kommunikativ natijalarni refleksiv baholash qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi integrativ kompetensiya sifatida talqin etiladi. Tadqiqot doirasida 5T yondashuvi Target, Task, Technology, Teamwork, Tracking komponentlari o'zaro integratsiyasiga asoslangan pedagogik model sifatida ishlab chiqildi. Xorijiy, rus va mahalliy tadqiqotchilarning kommunikativ kompetensiya, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar va chet tilini o'qitish texnologiyalariga doir qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Keywords: 5T yondashuvi, raqamli ta'lim, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, raqamli kommunikatsiya, Target, Task, Technology, Teamwork, Tracking, pedagogik mexanizm, interaktiv ta'lim

XXI asrda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi chet tillarni o'qitish mazmuni, metodlari va vositalariga yangi talablarni qo'yimoqda. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi ingliz tilidagi leksik-grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, raqamli axborot makonida samarali muloqot qilish, onlayn hamkorlikni tashkil etish, kasbiy va akademik mazmundagi raqamli axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va yaratish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi raqamli kompetensiya bilan uzviy bog'lanmoqda. M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatgan bo'lib, kommunikatsiya samaradorligini til vositalaridan muayyan vaziyatga mos foydalanish bilan bog'laydi [1]. L.F. Bachman esa kommunikativ til qobiliyatini tashkiliy, pragmatik va strategik kompetensiyalar o'zaro ta'siridan tashkil topuvchi murakkab tizim sifatida izohlaydi [2].

Raqamli ta'lim muhitining kengayishi ushbu nazariy yondashuvlarni yangi mazmun bilan boyitmoqda. Yevropa Komissiyasining DigComp konsepsiyasida kommunikatsiya va hamkorlik raqamli

kompetentlikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Unda raqamli vositalar orqali o'zaro muloqot qilish, ma'lumot almashish, hamkorlikda ishlash va raqamli identifikatsiyani boshqarish kabi ko'nikmalar muhim kompetensiyalar sifatida belgilangan [3]. Shuningdek, DigCompEdu modelida o'qituvchining raqamli kompetentligi nafaqat raqamli vositalardan foydalanish, balki o'quvchini faol kommunikativ va hamkorlikdagi ta'lim jarayoniga jalb etish bilan bog'lanadi [4].

Shu sababli ingliz tilini o'qitishda raqamli vositalardan shunchaki texnik qo'shimcha sifatida emas, balki kommunikativ maqsad, topshiriq, hamkorlik va baholashni yagona tizimga birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqotda 5T yondashuvi quyidagi tarkibiy qismlar birligi sifatida qabul qilindi: Target – Task – Technology – Teamwork – Tracking. Ushbu komponentlarning izchil va o'zaro bog'liq qo'llanishi talabani ingliz tilidagi kommunikativ hamda raqamli kompetensiyalarini integrativ ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya muammosi xorijiy til o'qitish

metodikasining asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini til bilimlaridan real ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati bilan bog'lagan [5]. Uning g'oyalari keyinchalik M. Canale va M. Swain tomonidan rivojlantirilib, kommunikativ kompetensiyaning lingvistik va ijtimoiy jihatlariga yagona tizim sifatida asoslab berilgan [1].

M.Celce-Murcia kommunikativ kompetensiya tarkibiga diskursiv, sotsiomadaniy, lingvistik, interaktsion va strategik komponentlarni kiritadi [6]. Ushbu yondashuv raqamli kommunikatsiya sharoitida ayniqsa dolzarbdir, chunki talaba onlayn muloqot jarayonida faqat grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzishi emas, balki kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholashi, suhbatdosh bilan interaktsiyaga kirishishi va muloqot strategiyalarini tanlashi kerak.

C.A.Chapelle kompyuter texnologiyalaridan chet tilini o'qitishda foydalanish o'quvchining til bilan faol o'zaro ta'sirini kuchaytirishi va individual ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi [7].

R. Hampel va U. Stickler tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham onlayn til ta'limi o'qituvchidan an'anaviy pedagogik ko'nikmalar bilan bir qatorda, raqamli muhitda kommunikatsiya, moderatsiya, hamkorlik va refleksiyani tashkil etishga doir yangi kompetensiyalarni talab qilishini ko'rsatadi [8].

D.R. Garrison, T. Anderson va W. Archer tomonidan ishlab chiqilgan "Community of Inquiry" modelida samarali onlayn ta'lim kognitiv, ijtimoiy va o'qituvchilik ishtirokining o'zaro integratsiyasiga asoslanishi ta'kidlanadi [9]. Mazkur yondashuv 5T modelining Teamwork komponentini ilmiy-metodologik jihatdan asoslashda alohida ahamiyatga ega.

R.Godwin-Jones mobil va raqamli texnologiyalar til o'rganish jarayonini an'anaviy auditoriya chegaralaridan tashqariga olib chiqishini, autentik materiallar va real kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadi [10].

Rus metodika maktabida E.S. Polat ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini faollashtirish, loyihaviy ta'limni tashkil etish hamda individual o'quv trayektoriyalarini yaratishga imkon berishini ta'kidlagan [11].

E.G. Azimov va A.N. Shchukin kommunikativ yondashuvni chet tilini o'rganuvchini real nutqiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan metodik tizim sifatida tavsiflaydi [12]. A.N. Shchukin fikricha, chet tilini o'qitishda topshiriqlar tizimi o'rganilayotgan tilning kommunikativ funksiyasiga xizmat qilishi va talabani real yoki modellashtirilgan nutqiy vaziyatga olib kiritish zarur [13].

O'zbekistonlik olim J.J. Jalolov chet tilini o'qitishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish nutq faoliyati turlarini o'zaro bog'liq holda shakllantirishni metodikaning muhim tamoyili sifatida ko'rsatadi [14].

R.Ishmuhammedov, A. Abduqodirov va A. Pardaev ta'lim jarayonida innovatsion va interaktiv texnologiyalardan foydalanish talabani bilimni passiv qabul qiluvchidan faol ta'lim subyektiga aylantirishini ta'kidlaydi [15].

O'.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni maqsad, mazmun, faoliyat, natija va baholashning o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin etadi [16]. Mazkur yondashuv ham 5T modelining strukturaviy-metodik tabiatiga mos keladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chet tillarni kommunikativ o'qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va hamkorlikdagi ta'lim masalalari ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Biroq kommunikativ maqsad, autentik topshiriq, raqamli texnologiya, hamkorlik va uzluksiz monitoringni yagona pedagogik mexanizm sifatida integratsiyalash masalasi metodik jihatdan yanada takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, kommunikativ-faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va raqamli ta'lim yondashuvlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik, psixologik va lingvodidaktik manbalarni tahlil qilish; qiyosiy tahlil; pedagogik modellashtirish; tizimlashtirish va umumlashtirish; kommunikativ vaziyatlarni loyihalash; pedagogik kuzatish; anketa va so'rovnoma; diagnostik topshiriqlar; o'zaro baholash va o'zini o'zi baholash; elektron portfolio; refleksiv tahlil.

5T yondashuvi tadqiqotda mualliflik metodik modeli sifatida quyidagi beshta o'zaro aloqador komponent orqali operatsionallashtirildi.

5T komponenti	Pedagogik mazmuni	Asosiy mexanizmi	Kutilayotgan natija
Target	Kommunikativ maqsad	maqsadli-motivatsion	alaba qanday kommunikativ natijaga erishishini anglaydi
Task	Autentik kommunikativ topshiriq	mazmuniy-faoliyatli	bilim real muloqot faoliyatida qo'llanadi

Technology	Raqamli vositalar	texnologik	kommunikativ faoliyat uchun raqamli muhit yaratiladi
Teamwork	Hamkorlikdagi muloqot	interaktiv-hamkorlik	uftlik va guruh kommunikatsiyasi faollashadi
Tracking	Monitoring va refleksiya	refleksiv-baholash	individual rivojlanish dinamikasi aniqlanadi

Target — maqsadli-motivatsion mexanizm. 5T yondashuvining birinchi komponenti talabani o'quv faoliyatini aniq kommunikativ natijaga yo'naltirishni nazarda tutadi. An'anaviy yondashuvda maqsad:

"Past Simple zamonini o'rganish" shaklida ifodalanishi mumkin.

5T yondashuvida esa: "Talaba ingliz tilida o'tgan voqea-hodisani mantiqiy ketma-ketlikda 2-3 daqiqa davomida mustaqil bayon qila oladi"

kabi kommunikativ natija bilan belgilanadi.

Bunday yondashuv grammatik bilimni maqsad emas, balki kommunikatsiya vositasiga aylantiradi.

Task — mazmuniy-faoliyatli mexanizm. 5T modelining ikkinchi bosqichida talabani real kommunikativ ehtiyojiga yaqin bo'lgan topshiriqlar tanlanadi.

Bular: muammoli vaziyat; debat; loyiha; rol o'ynash; videomurojaat; onlayn suhbat; podcast; intervyu; kasbiy dialog; elektron xat; jamoaviy taqdimot ko'rinishida tashkil etilishi mumkin.

Masalan: "Your university plans to reduce face-to-face classes and increase online learning. Discuss the advantages and disadvantages and prepare a group recommendation". Mazkur vazifada talaba grammatika yoki lug'at mashqini alohida bajarmaydi, aksincha ularni real kommunikativ muammoni hal qilish jarayonida qo'llaydi.

Technology — texnologik mexanizm. Raqamli vosita 5T yondashuvida pedagogik maqsadning o'rnini egallamaydi. Aksincha, u kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar quyidagi maqsadlarda qo'llanishi mumkin:

- videokonferensiyalar — dialog va debat uchun;
- LMS platformalari — topshiriq va teskari aloqani boshqarish uchun;
- umumiy elektron hujjatlar — hamkorlikda matn yaratish uchun;
- audio va video platformalar — nutq faoliyatini rivojlantirish uchun;
- elektron portfolio — kommunikativ rivojlanishni qayd etish uchun;
- interaktiv test vositalari — tezkor diagnostika uchun;

• sun'iy intellekt vositalari — individual mashqlar, teskari aloqa va til materiallarini moslashtirish uchun.

Texnologiyani tanlashda asosiy mezon: "Mazkur raqamli vosita talabaga qanday kommunikativ faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi?"

degan savoldan kelib chiqishi kerak.

Teamwork — interaktiv-hamkorlik mexanizmi. Kommunikativ kompetensiya individual ravishda emas, o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi. Shu sababli 5T yondashuvining Teamwork komponentida juftlik va kichik guruhlar bilan ishlash asosiy o'rin tutadi.

Quyidagi metodik ketma-ketlik samarali hisoblanadi:

individual fikrlash → juftlikdagi muloqot → guruh muhokamasi → jamoaviy qaror → taqdimot → o'zaro baholash.

Teamwork jarayonida talabada: suhbatni boshlash; savol berish; javob qaytarish; fikrni davom ettirish; dalillash; suhbatdosh bilan kelishish; muloyim e'tiroz bildirish; xulosa chiqarish kabi interaktsion ko'nikmalar rivojlanadi.

Tracking — refleksiv-baholash mexanizmi. 5T yondashuvining yakunlovchi komponenti talabani kommunikativ rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatishga asoslanadi.

Monitoring quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin:

boshlang'ich diagnostika → joriy monitoring → peer assessment → self-assessment → o'qituvchi feedback → yakuniy diagnostika.

Bunda elektron portfolio talabani individual rivojlanishini ko'rsatib beruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.

O'tkazilgan nazariy-metodologik tahlil 5T yondashuvi asosida talabalarning ingliz tilidagi raqamli kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning beshta asosiy pedagogik mexanizmini ajratish imkonini berdi: 1. Maqsadli-motivatsion mexanizm. 2. Mazmuniy-faoliyatli mexanizm. 3. Raqamli-texnologik mexanizm. 4. Interaktiv-hamkorlik mexanizmi. 5. Refleksiv-baholash mexanizmi.

Mazkur mexanizmlar alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida faoliyat yuritadi: Target → Task → Technology → Teamwork → Tracking → yangi

Target. Shu jihatdan 5T modeli chiziqli emas, balki siklik-rivojlanuvchi pedagogik model hisoblanadi. Tracking bosqichida olingan natijalar keyingi ta'lim maqsadini belgilash uchun diagnostik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida raqamli kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlashtirildi:

1. *Lingvistik kompetensiya*. Talabani ingliz tilidagi leksik, grammatik, fonetik va imloviy vositalardan kommunikativ maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati.

2. *Diskursiv kompetensiya*. Fikrni mantiqiy ketma-ketlikda, mazmuniy bog'liqlik va yaxlitlikni saqlagan holda ifodalash qobiliyati.

3. *Interaksion kompetensiya*. Suhbatni boshlash, davom ettirish, savol-javob qilish, suhbatdosh fikriga munosabat bildirish va muloqotni boshqarish qobiliyati.

4. *Sotsiomadaniy kompetensiya*. Kommunikativ vaziyat, suhbatdoshning madaniy xususiyatlari va nutq etiketi talablariga mos muloqot olib borish qobiliyati.

5T yondashuvining amaliy qo'llanishi quyidagi didaktik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi:

An'anaviy yondashuv	5T yondashuvi
til qoidasini o'rganish	kommunikativ natijaga erishish
tayyor mashqni bajarish	real muammoni hal qilish
o'qituvchi markazli dars	talaba markazli hamkorlik
texnologiyadan ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish	texnologiyadan kommunikativ vosita sifatida foydalanish
faqat yakuniy baholash	uzluksiz monitoring va refleksiya
individual javob	jamoaviy kommunikativ faoliyat

Shuningdek, tadqiqot davomida raqamli kommunikativ kompetensiyaning baholash uchun quyidagi mezonlar tavsiya etildi: nutqning grammatik va leksik aniqligi; nutq ravonligi; kommunikativ vazifaga moslik; diskursiv yaxlitlik; interaktivlik darajasi; kommunikativ strategiyalardan foydalanish; raqamli vositani to'g'ri tanlash; raqamli muloqot madaniyati; guruhdagi hamkorlik faolligi; refleksiya va o'zini o'zi baholash qobiliyati. Mazkur mezonlar asosida raqamli kommunikativ kompetensiyaning yuqori, yetarli, o'rta va past darajalarini ajratish mumkin.

Yuqori daraja. Talaba turli raqamli kommunikativ vaziyatlarda ingliz tilidan erkin va mustaqil foydalanadi, fikrini dalillaydi, hamkorlikdagi faoliyatda tashabbus ko'rsatadi va raqamli vositani maqsadga muvofiq tanlaydi.

Yetarli daraja. Talaba asosiy kommunikativ vazifalarni mustaqil bajaradi, biroq ayrim lingvistik, strategik yoki texnologik qiyinchiliklarga duch keladi.

O'rta daraja. Talaba kommunikativ vazifani bajarishda o'qituvchi yoki guruhdoshlar ko'magiga

5. *Strategik kompetensiya*. Kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelganda izohlash, qayta ifodalash, sinonimik vositalardan foydalanish va qo'shimcha savollar orqali muloqotni davom ettirish qobiliyati.

6. *Raqamli kommunikativ kompetensiya*. Raqamli platforma va vositalarni kommunikativ vazifaga mos tanlash, raqamli muloqot etikasiga amal qilish, axborotni almashish va hamkorlikdagi raqamli faoliyatda ishtirok etish qobiliyati.

Natijada talabani ingliz tilidagi raqamli kommunikativ kompetensiyasi quyidagi integrativ formula orqali ifodalandi: $RKK = LK + DK + IK + SK + StK + RK$

bunda: RKK — raqamli kommunikativ kompetensiya; LK — lingvistik kompetensiya; DK — diskursiv kompetensiya; IK — interaksion kompetensiya; SK — sotsiomadaniy kompetensiya; StK — strategik kompetensiya; RK — raqamli kompetensiya. Mazkur formula matematik hisoblash formulasi emas, balki kompetensiyaning tarkibiy tuzilishini ifodalovchi konseptual modeldir.

ehtiyoj sezadi, raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari barqaror shakllanmagan.

Past daraja. Talabada ingliz tilida mustaqil kommunikatsiya, hamkorlik va raqamli vositalardan maqsadli foydalanish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Shu tariqa, 5T yondashuvi talabani faqat til bilimlarini emas, balki ingliz tilida real raqamli kommunikativ faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan an'anaviy metodik yondashuvlardan farqlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishning asosiy natijasi grammatik va leksik bilimlarning o'zlashtirilishi bilangina cheklanmasligi, talabani turli raqamli kommunikativ vaziyatlarda mustaqil va samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Ikkinchidan, raqamli kommunikativ kompetensiya lingvistik, diskursiv, interaksion,

sotsiomadaniy, strategik va raqamli kompetensiya-larning o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab pedagogik hodisadir.

Uchinchidan, taklif etilgan 5T yondashuvi Target, Task, Technology, Teamwork va Tracking komponentlarini yagona pedagogik tizimga birlashtiradi. Bunda har bir komponent keyingi bosqich uchun did-aktik asos yaratadi.

To'rtinchidan, 5T yondashuvining samara-dorligini ta'minlovchi asosiy pedagogik mexanizmlar maqsadli-motivatsion, mazmuniy-faoliyatli, raqamli-technologik, interaktiv-hamkorlik va reflektiv-baholash mexanizmlaridan iborat.

Beshinchidan, raqamli texnologiya mazkur modelda ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki talabani ingliz tilidagi kommunikativ faoliyatini tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qaraladi.

Oltinchidan, Tracking komponentining modelga kiritilishi talabani faqat yakuniy bilimni emas, balki kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishining indi-vidual dinamikasini aniqlashga imkon beradi.

Umuman olganda, 5T yondashuvining ingliz tili ta'limiga integratsiyasi talabani bilim oluvchi obyekt sifatida emas, balki raqamli kommunikativ faoliyat-ning faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qi-ladi.

Amaliy tavsiyalar

1. Ingliz tili mashg'ulotlarida har bir mavzuning maqsadini grammatik mavzu shaklida emas, balki aniq kommunikativ natija ko'rinishida belgilash tavsiya eti-ladi.

2. Talabalarga mo'ljallangan topshiriqlar real hayot, akademik faoliyat va kelajakdagi kasbiy kom-munikatsiyaga yaqinlashtirilishi lozim.

3. Raqamli texnologiyani tanlashda uning yangiligi emas, balki kommunikativ vazifani hal qi-lishdagi pedagogik imkoniyati asosiy mezon bo'lishi kerak.

4. Har bir mashg'ulotda individual topshiriq bi-lan bir qatorda juftlik, kichik guruh yoki jamoada ba-jariladigan ingliz tilidagi kommunikativ faoliyatni tash-kil qilish maqsadga muvofiq.

5. Ingliz tilini o'qitishda onlayn debat, podcast, videomuloqot, loyiha, raqamli hikoya, jamoaviy el-ektron matn va peer-review kabi faoliyat turlaridan muntazam foydalanish zarur.

6. Kommunikativ kompetensiyani baholashda grammatik aniqlik bilan cheklanmasdan, ravonlik, in-teraktivlik, diskursiv yaxlitlik, strategik kompetensiya, hamkorlik va raqamli muloqot madaniyatini ham hisobga olish lozim.

7. Talabani kommunikativ rivojlanishini ku-zatish uchun elektron portfolio, o'zini o'zi baholash varaqalari, analitik rubrikalar va reflektiv kundaliklar-dan foydalanish tavsiya etiladi.

8. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda talabalarda akademik halollik, axborotni tekshirish, mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda AI natijalarini tanqidiy baholash ko'nikmalari rivojlantirilishi zarur.

9. 5T yondashuvi bo'yicha tajriba-sinov ishlarida eksperimental va nazorat guruhlarining boshlang'ich hamda yakuniy ko'rsatkichlarini qiyoslash, natijalarn-ing statistik ishonchligini tegishli statistik mezonlar orqali aniqlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative ap-proaches to second language teaching and testing // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47. DOI: 10.1093/ap-plin/1.1.1.
2. Bachman L.F. *Fundamental Considerations in Language Test-ing*. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
3. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. *DigComp 2.2: The Digital Com-petence Framework for Citizens – With New Examples of Knowledge, Skills and Attitudes*. – Luxembourg: Publications Of-fice of the European Union, 2022. DOI: 10.2760/115376.
4. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu*. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: 10.2760/159770.
5. Hymes D. On communicative competence // *Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics*. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
6. Celce-Murcia M. Rethinking the role of communicative compe-tence in language teaching // *Alcón Soler E., Safont Jordà M.P. (eds.). Intercultural Language Use and Language Learning*. –

- Dordrecht: Springer, 2007. – P. 41–57. DOI: 10.1007/978-1-4020-5639-0_3.
7. Chapelle C.A. *Computer Applications in Second Language Ac-quisition: Foundations for Teaching, Testing and Research*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Hampel R., Stickler U. *New skills for new classrooms: Training tutors to teach languages online* // *Computer Assisted Language Learning*. – 2005. – Vol. 18, No. 4. – P. 311–326. DOI: 10.1080/09588220500335455.
9. Garrison D.R., Anderson T., Archer W. *Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education* // *The Internet and Higher Education*. – 2000. – Vol. 2, No. 2–3. – P. 87–105. DOI: 10.1016/S1096-7516(00)00016-6.
10. Godwin-Jones R. *Using mobile technology to develop lan-guage skills and cultural understanding* // *Language Learning & Technology*. – 2018. – Vol. 22, No. 3. – P. 3–17.
11. Polat E.S., Buxarkina M.Yu., Moiseeva M.V., Petrov A.E. *Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obra-zovaniya*. – Moskva: Akademiya.

12. Azimov E.G., Shchukin A.N. Novyy slovar metodicheskix terminov i ponyatiy: teoriya i praktika obucheniya yazykam. – Moskva: IKAR, 2009.
13. Shchukin A.N. Obuchenie inostrannym yazykam: teoriya i praktika. – Moskva: Filomatis, 2004.
14. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
15. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
16. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.